



МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГЛАРИНИ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ ТИЗИМИГА ВАРИАТИВ ЙОНДАШУВ

Abdullayeva N.Sh.

*Maktabgacha talim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori,
p.f.d. (DSc), dotsent*

Таянч со‘злар: maktabgacha ta‘lim, variativ, invariant, sifat, sifat nazorati, tahlil, metodik, texnologik.

Ключевые слова: дошкольное образование, переменная, инвариант, качество, контроль качества, анализ, методический, технологический.

Key words: preschool education, variable, invariant, quality, quality control, analysis, methodological, technological.

Uzluksiz ta‘limning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Yana shuni ham ta‘kidlash joizki maktabgacha ta‘lim – ijtimoiy farovonlikning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta‘lim tizimiga sifatli kadrlar tayyorlash muammosi juda murakkab.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231 son “Maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlari hodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini samaradorligini ta‘minlash, ularni kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish maqsadida bir qancha vazifalar belgilangan. Jumladan:

maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturi joriy etish;



maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari hodimlarini kasbiy extiyoji va malaka toifasidan kelib chiqib tabaqalashgan ta'lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimi (vazirlik-malaka oshirish muassasasi-ta'lim tashkiloti) yo'lga qo'yish;

maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining hodimlari uchun besh yilda bir marotada ishdan ajralgan holda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslarini joriy qilish kabilar.

Shuningdek, qarorda pedagog va mutaxassis kadrlar uchun – variativ (ixtiyoriy) va invariant (majburiy) modullardan iborat bo'lgan hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari bo'yicha tashkil etilishi belgilab qo'yilgan.

Variativlik – ta'lim tizimining sifatini anglatadi, bu esa o'quvchilarni ta'lim dasturlari yoki muayyan turdagi ta'lim xizmatlarini yaratish va ularga o'zlarining o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida tanlash imkoniyatini belgilaydi.

Ta'limning variativligi – O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biridir. Bu esa ta'limning yuqori darajadagi individuallashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida variativlik deganda biz mazmun jihatdan farqlanuvchi o'quv dasturlari (turli yoshdagi va turli maktabgacha tashkilotlari uchun), ta'lim usullari, shakllari va ta'lim texnologiyalarini nazarda tutamiz va ular mavjud dasturlar va texnologiyalardan avvalambor o'zining o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligi, integrativligi va individullashtirishga moyligi bilan farqlanadi .

Maktabgacha ta'lim jarayonining variativligi – maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini muvofiqlashgan faoliyati hisoblanadi. Bu jarayon ta'lim mazmunini tanlashda (ta'lim standartlari va talablari doirasida), ta'lim vositalari, usullari va muloqot yo'llarini umuman olganda maktabgacha ta'lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiyaga variativlik yondashuvini tadbiq qilishning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim-tarbiyani takomillashtirish va tinglovchilarni malaka oshirish jarayonida rivojlanish samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir, xususan:

tinglovchilar bilan muloqotni o'zgartirish, ya'ni avtoritar tarzda ta'sir o'tkazishdan har bir tinglovchining shaxsiy identifikatsiyasi, ishonchni o'rnatish, o'qituvchi bilan va tinglovchilar o'rtasidagi sheriklik munosabatlariga yo'naltirilgan muloqotga o'tish imkoniyatlarini yaratish;



o'quv dasturlari shakli va mazmunini o'zgartirish, ularni tinglovchini rivojlantirishga yo'naltirish, o'quv mazmunini differensialash va individuallashtirishga qaratish;

tinglovchilarni malaka oshirish jarayonida kattalar adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan qurollantirish, umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish;

tinglovchilarning mustaqil istagi va xohishlariga mos ravishda faoliyat va ijodini ta'minlash, tinglovchilar faoliyatining turi va shaklini tanlash – hamkasblari bilan birgalikda yoki individual bo'lish uchun, guruh xonasida obyektiv muhitni tashkil qilish.

Maktabgacha ta'lim tizimining variativ modelini tatbiq qilish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni shakllantirishda quyidagi o'ziga xos jihatlarni inobatga olish kerak:

amaliylik (real holatga asoslanish);

hududlarning, ta'lim tashkilotlarining manbalari va imkoniyatlarini hisobga olish;

aniqlik (konkret, ravshan, lo'nda, muayyan bo'lishi);

o'ziga xoslik – hududlar va ota-onalarning talablarini inobatga olish;


amaliy natijaviylik, samaralilik (ta'sirchan, foydali);

aniq vazifalarni hal qilishga yo'nalganlik, faollikka yo'naltiruvchi, belgilangan maqsadlarga intiltiruvchilik.

Variativlik – bu maktabgacha ta'lim tizimi sifat ko'rsatkichidir. U maktabgacha ta'lim tizimi iste'molchilarining (ota-onalar, bolalar) maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida ularga tanlov asosida ta'lim dasturlari variantlari va alohida ta'lim xizmatlari turlarini taqdim etish xususiyati bilan xarakterlanadi. Yuqorida ko'rsatilib o'tgan fikr va muloxazalar zamon tendensiyalar sifatida e'tiroz etilayotgan variativlik yondashuvni metodologik, didaktik, metodik va texnologik jihatlarini mavjud maktabgacha ta'lim tizimiga tadbiq etilishini samarali yo'l sifatida qaraladi.


Maktabgacha ta'lim tizimida variativlik deganda biz mazmun jihatdan farqlanuvchi o'quv dasturlari (turli toifadagi mutaxassislar uchun), ta'lim usullari, shakllari va ta'lim texnologiyalarini nazarda tutamiz va ular mavjud dasturlar va texnologiyalar avvalambor o'zining o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligi, integrativligi va individullashtirishga moyligi bilan farqlanadi.

A.G.Asmolov o'zining ishlarida variativ ta'limning metodologik jihatlarini ochib bergan. Bunda variativ ta'lim shaxsni rivojlantirishga keng imkoniyatlarni beruvchi vosita sifati qaralib unda nafaqat tarkib jihatidan turli hildagi foydalanilayotgan o'zgaruvchan dasturlar (umumta'lim, chuqurlashtirilgan,



1-rasm. Maktabgacha ta'limda variativ yondashuvning metodik va texnologik jihatlari


kengaytirilgan bosqichlar), balki, usuli, shakli va texnologiyasi bilan farqlanadigan dasturlar ham tushuniladi. Shuning uchun, ta'limning o'zgaruvchanligi tinglovchi, uning imkoniyatlari, ehtiyojlarini inobatga olgan holda, tinglovchining shaxsiga qaratilgan ta'lim shakli hisoblanadi.



2-rasm. Ta'lim sifatini boshqarishning tarkibiy qismlari:

Ta'lim sifatini boshqarish uchun quyidagilar zarur:

1. Sifatni boshqarish va o'lchash vositalari.
2. Maxsus bo'limlarni o'z ichiga olgan nazorat tizimi.
3. Boshqarish motivlari.
4. Boshqarish mexanizmlari.



3-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish modeli

5. Sifatni boshqarish natijalarini ishlatishning maqsad va shartlari. Mana shularni ham jadval qilish kerak, chiroyli chiqardi.



Shunday qilib, variativ ta'lim jarayoni deganda – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qatnashchilar faoliyatining ta'lim jarayonida o'zaro hamkorliklari, tadbiiq qilinayotgan tanlov sharoitlarining tarkibi (davlat standartlari doirasida), faoliyat va muloqotning vosita va usullari, shaxsning maqsadga bo'lgan ahamiyatli munosabati, ta'lim jarayoni va tarkibi tushuniladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog hodimlari 5 yilda bir marotada 100 soat an'naviy ishdan ajralgan holda va 72 soat onlayn har yili "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi orqali uzluksiz ravishda o'z kasbiy bilimlarini oshirib boradigan mexanizm ishlab chiqilmoqda. Bunda an'naviy ishdan ajralgan holda 100 soat malaka oshirish uchun 3 blokdan iborat variativ o'quv reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Umumkasbiy blok invariant modullardan iborat bo'ladi. Bunda maktabgacha ta'lim tizimiga taalluqli meyoriy huquqiy hujjatlarni mazmun-mohiyati va amalda qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Maxsus blokda pedagogning toifasi (metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, musiqa rahbari), malaka talablarida belgilangan vazifalari va kasbiy rivojlanishdagi extiyojiga asoslangan variativ modullar shakllantiriladi.

Pedagog-tarbiyachilarni ma'lumotiga, ya'ni o'rta maxsus yoki oliy ma'lumotliligiga qarab o'quv reja va dasturlar tayyorlanadi.

"Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi joriy etish orqali har yili 72 soatga mo'ljallangan o'quv reja asosida o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturda berilgan mavzular bo'yicha kontentlar, taqdimotlar, ma'ruza matnlari joylashtiriladi. Kurs yakunida tinglovchilarni kasbiy, metodik va innovatsion kompetentligini aniqlash maqsadida test savollari beriladi va muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar kelasi yil o'tiladigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish bosqichiga o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, uzviy kasbiy rivojlantirish tizimini maktabgacha ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali pedagog hodimlarning o'z ustida mustaqil ishlashiga, har yili elektron dastur orqali bilimlarini boyitib borish, rivojlangan xorijiy davlatlarni ilg'or tajribalarini o'rganishga va amaliyotda qo'llashga va media kompetentligini oshirib borishga imkoniyat yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231 "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari hodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori // Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi



PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori // Lex.uz

3. N.SH.Abdullayeva Maktabgacha ta‘limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Dissertatsiya PhD. Toshkent 2020.

4. A.G.Asmolov Psixologiya XXI veka i rojdeniye variativnogo obrazovatel'nogo prostranstva v Rossii // Novoye vremya i novaya didaktika Moskva: 2001 g.

5. Abdullayeva N.SH. Maktabgacha ta‘limga variativ yondashuv- maktabgacha ta‘lim tizimi sifat ko‘rsatkichidir // Xalq ta‘limi ilmiy-metodik jurnal.–Toshkent, 2018.–№3.–B.89-95.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish, variativ va invariant dasturlarni yaratish va 231-sonli PQ ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohatlar mazmuni yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Освещено содержание проводимых реформ по совершенствованию системы непрерывного профессионального развития педагогов организаций дошкольного образования, созданию вариативных и инвариантных программ и обеспечению реализации ПК № 231.

SUMMARY

The content of the ongoing reforms to improve the system of continuous professional development of teachers of preschool education organizations, the creation of variable and invariant programs and ensuring the implementation of PC No. 231 is covered.